




OXUNJON SAFAROV

ЎЗБЕК ХАЛҚ БОЛАЛАР ЎЙИНИ





BARKAMOLLIK  KUTUBXONASI

OXUNJON SAFAROV

**ЎЗБЕК ХАЛҚ
БОЛАЛАР
ЎЙНЛАРИ**



«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT – 2013

UO‘K 821.512.133-3

KBK 74.100.57

S 37

S – 37 **Safarov, Oxunjon**


O‘zbek xalq bolalar o‘yinlari. — T. «Sharq», 2013. — 176 b.

Xalq dahosi yaratgan bolalar o‘yinlar asrlar davomida navqiron naslni chiniqtirish va tarbiyalash vazifasini o‘tab kelayotir. Ularda xalqning an’anaviy turmush tarzida sinalgan, o‘zbekona milliy ruh bilan yo‘g‘rilgan jismoniy-tarbiyaviy va ma’naviy-axloqiy qarashlar o‘z aksini topgan. O‘zbek bolalarining xalqona o‘yinlari jamlangan ushbu kitob katta tadqiqot sifatida diqqatni tortadi.

ISBN 978-9943-00-976-9

UO‘K 821.512.133-3

KBK 74.100.57



ISBN 978-9943-00-976-9

© «Sharq» NMAK Bosh tahririyati, 2011, 2013



XALQ O'YINLARI — BOLALAR UCHUN HAYOT MAKTABI

«O'yin» va «raqs» tushunchalarini farqlamay qo'llash odat tusiga kirgan, go'yoki ular bir hodisaday, ular orasida hech qanaqa tafovut yo'qday. Aslida-chi? Aslida ular bir-biriga mohiyatan o'xshamaydigan hodisalar bo'lib, har biri o'z tabiatiga ega, o'ziga xos qonuniyatlar asosida yashaydi, rivojlanadi. Rost, har ikkalasi ham harakat zahirida qurilgan, qolaversa, raqs, qisman esada, o'yindan o'sib chiqqan. Shu vajdanmikin, «o'yin» nisbatan keng ma'noli tushunchaga aylangan, raqs hodisasini anglatadigan ma'noda ham qo'llanaveirilgan. Buni xalqona o'yinlar misolida ravshanroq ko'rish mumkin. Aytaylik, «Chittigul» harakatni so'z boshqarishi asosida qurilgan qizaloqlar o'yini. Qizaloqlar uni erta bahorda (endigina nish otib ko'kara boshlagan gul-u sabzalarini ko'rib quvonch va hayajondan entikib) «chittigul» — aslida ular chuchuk tilida chiqqan, hayajonga limmo-lim «chiqdi gul!» iborasi ekanligini inobatga oling, qo'l ushlab davra hosil qilgan holda aylana turib, o'zaro jo'rovozlilikda qo'shiqni kuylashadi. Bunda aylanish harakati qo'shiq uchun ritmik — ohangdorlik asos vazifasini bajargan:

*Etagingga gul bosay,
Bir yonini yon bosay.*

Naqorat ijrosi jarayonida esa aylanayotgan yondosh qizaloqlar shiddat bilan juft-juft bo'lishi, bir-birlarining kaftlariga kaftlari bilan uch marta urib kuylashda davom etishgan:

*Ha-yu, chittigul,
Ha-yu, chittigul!*

O'yin nihoyasida oxirgi marta kaftlarni urishtirib, har bir qizaloq o'z o'rnida gir aylanib turib:

*Ha-yu, chittigul,
Ha-yul!.. —*

der ekan, barchalari birvarakayiga gurra tarqalishgan (O'yin qaytarilganda yana yuqoridagi tartibga amal qilingan).